

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



Elektron ilmiy-ommabop jurnal

2025

1 -SON

(+998) 50-005-45-69

https://t.me/demografiya_mehnatbozori

demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
1-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,

Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,

Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,

Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor

Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor

Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor

Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD

Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Умурзаков Баходир Хамидович <i>Дунёдаги демографик ривожланиш ҳолати ва истиқболлари.....</i>	4
Xudoykulov Sadirdin Karimovich, Abdurahimov Sarvar Nasrilloevich <i>Kambag'allikni qisqartirish, aholi turmush tarzini yaxshilash — farovon hayot demakdir.....</i>	18
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, Musayev Bekzod Murodovich <i>Mirzacho'l iqtisodiy rayon shaharlarining ijtimoiy-demografik rivojlanishi va muammolarini hal etish yo'llari.....</i>	29
Мамадалиева Хафиза Холдаровна <i>Демографическое развитие и его влияние на экономический рост страны: теоретический и эмпирический анализ.....</i>	38
Abdullayev Asliddin Jumaydullayevich, Burxonov Sardorjon Nasulloyevich <i>Enhancing educational effectiveness through the application of innovative communication marketing strategies in higher education institutions.....</i>	49
Yavmutov Dilshod Shoyimardonqulovich, Burxonov Sardorjon Nasulloyevich <i>The role of industrial greening in ensuring economic stability in our country.....</i>	63
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, Omanova Kamola Botir qizi <i>Jizzax viloyati qishloq aholi manzilgohlari joylanishining geografik xususiyatlari (turlari va shakllari).....</i>	73
Shakarov Zafar Gafforovich <i>Иш жойлари мониторинги амалга оширишнинг хорижий давлатлар тажрибалари.....</i>	82
Burxonov Sardorjon Nasulloyevich <i>Leveraging marketing strategies to boost national economic competitiveness.....</i>	91
Sherxolov Olimjon Iskandarovich, Musayev Bekzod Murodovich <i>Samarqand viloyati aholi soni dinamikasi.....</i>	100
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li <i>Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning iqtisodiy asoslari.....</i>	107
Asqarova Muhabbat Ibraximovna <i>Hozirgi zamon ilmiy-amaliy yondoshuvlarni innovatsion tarzda shakllantirish va rivojlantirish...</i>	116
Burxonov Sardorjon Nasulloyevich, Dustmurodov Diyorbek Xo'dayor o'g'li <i>Tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy strategiyani shakllantirish.....</i>	125
Нуманова Мадина Латиф қизи <i>Инсон капитали ва барқарор ўсиш: Ўзбекистон ҳудудларининг рақобатбардошлигини оширишдаги роли.....</i>	131
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li <i>Yaponiyada uy xo'jaligi transfertlarining iqtisodiy ahamiyati va uni O'zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari.....</i>	143
Ibragimova Mehrangiz Isomiddinovna <i>Ta'limda modulli o'qitish texnologiyasi.....</i>	151
Ro'ziyeva Anora Muhammadiyor qizi <i>Kompyuter jinoyatlari va kiberxavfsizlik: raqamli jamiyatda huquqiy, texnologik va ijtimoiy jihatlar.....</i>	156
Mamatqulova Mushtariy Komiljon qizi <i>Mehnat munosabatlarida moliya-soliq mexanizmlari orqali norasmiy bandlikni kamaytirish choralari.....</i>	165
Yunusova Ug'ilo'yl Bolqiboy qizi <i>Ovqatlanish korxonalarida ofitsantlar xizmat sifatini oshirish.....</i>	172

MEHNAT MUNOSABATLARIDA MOLIYA-SOLIQ MEXANIZMLARI ORQALI NORASMIY BANDLIKNI KAMAYTIRISH CHORALARI.

Mamatqulova Mushtariy Komiljon qizi
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti
E-mail: mushtariymamatqulova@gmail.com
ORCID: 0009-0000-8092-0365

Annotatsiya. Ushbu maqola bugungi kunda mehnat munosabatlarining shakllanishi va amalga oshirilishida moliya-soliq mexanizmlarining o'rni va bu mexanizmlar orqali mavjud norasmiy mehnat munosabatlarini kamaytirish choralari o'rganadi. Norasmiy bandlik aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasiga va shu bilan birga soliq tushumlarini kamaytirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodchi olimlarning nazariy asoslari, metodologik yondashuvlar va xalqaro tajribalarni tahlil qilib, O'zbekiston iqtisodiyotiga mos bo'lgan tizimlar haqida tushuncha beriladi.

Kalit so'zlar: norasmiy bandlik, moliya-soliq mexanizmlari, mehnat bozori, soliq siyosati, ijtimoiy himoya, iqtisodiy o'sish, ishchi kuchi

МЕРЫ ПО СОКРАЩЕНИЮ НЕФОРМАЛЬНОЙ ЗАНЯТОСТИ ЧЕРЕЗ ФИНАНСОВО-НАЛОГОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ В ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ.

Маматкулова Муштарий Комильжон кизи
Докторант научно-исследовательского центра
«Научные основы и проблемы развития
экономики Узбекистана» при ТГЭУ

Аннотация. В данной статье исследуется роль финансово-налоговых механизмов в формировании и осуществлении трудовых отношений сегодня и меры по сокращению существующих через эти механизмы неформальных трудовых отношений. Неформальная занятость отрицательно сказывается на социально-экономическом уровне жизни населения, а вместе с тем и на экономике страны за счет

снижения налоговых поступлений. Анализируя теоретические основы, методологические подходы и международный опыт ученых-экономистов, дается представление о системах, подходящих для экономики Узбекистана.

Ключевые слова: неформальная занятость, финансово-налоговые механизмы, рынок труда, Налоговая политика, социальная защита, экономический рост, рабочая сила

MEASURES TO REDUCE INFORMAL EMPLOYMENT THROUGH FINANCIAL AND TAX MECHANISMS IN LABOR RELATIONS.

Mamatkulova Mustariy Komiljon kizi

Doctoral student at the Scientific Research Center

“Scientific foundations and problems of economic development of Uzbekistan” under TSUE

Annotation. *This article explores the role of financial and tax mechanisms in the formation and implementation of Labor Relations today and measures to reduce the existing informal labor relations through these mechanisms. Informal employment also negatively affects the socio-economic standard of living of the population and, at the same time, the country’s economy by reducing tax revenues. By analyzing the theoretical foundations, methodological approaches and international experiments of economists, an understanding of the systems corresponding to the economy of Uzbekistan is given.*

Keywords: *informal employment, finance-tax mechanisms, labor market, Tax Policy, Social Protection, economic growth, labor*

Kirish. Bozor iqtisodiyotida mehnat munosabatlari muhim o‘rin egallaydi. Iqtisodiy farovonlikka erishishning asosiy tamoyillaridan biri ham aholining bandlik darajasini oshirish, xufiyona iqtisodiyotni yo‘q qilish va mehnat munosabatlarida moliya-soliq mexanizmlari ta’sirini doimiy takomillashtirish hisoblanadi. Chunki, moliya va soliqqa oid siyosatlar mehnat munosabatlarining shakllanishi, barqarorligi, rasmiylashtirilishi va ijtimoiy himoya bilan ta’minlanishiga bevosita ta’sir etadi.

Norasmiy bandlikning mavjudligi esa har bir jamiyatda, hamma davrda kuzatiladigan ijtimoiy hodisa bo‘lsa-da, uning darajasining yuqoriligi mamlakat

iqtisodiyoti uchun ko'pgina salbiy oqibatlarni olib kelishi mumkin. Ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatgichning yuqoriligi hali ham dolzarb masala sifatida qolmoqda. Norasmiy bandlik - bu davlat tomonidan ro'yxatga olinmagan, soliq to'lanmaydigan va mehnat qonunchiligiga rioya qilinmaydigan mehnat faoliyati turi hisoblanib, uning yuqori bo'lishiga sabablar odatda ish beruvchilar uchun ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarning ta'siri to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, mehnat munosabatlarida uzoq ko'p vaqt talab qiladigan va murakkab byurokratik jarayonlar, va ayniqsa, soliq yukining yuqoriligi orqali paydo bo'ladi[4]. Ishchi nuqtai nazaridan ham rasmiy xodim sifatida to'lanadigan soliq yuklaridan qochishlik norasmiy sektorning kengayishiga zamin yaratadi. Shu sababli bugungi kunda mehnat munosabatlarida moliya-soliq mexanizmlarining ta'sirini to'g'ri olib borish, mehnat bozorini tartibga solishda ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarni tadqiq qilish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga erishishda dolzarb masala hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Moliya-soliq mexanizmining mehnat munosabatlariga ta'sirini o'rganish bozor iqtisodiyoti sharoitida norasmiy bandlikka qarshi o'ta muhim bo'lib, bunda fiskal siyosat vositalarining mehnat resurslariga ko'rsatgan bevosita va bilvosita ta'siri tahlil qilinadi. Norasmiy sektor – bu qonunchilikka rasmiy kiritilmagan, lekin real iqtisodiy hayotda faoliyat yuritayotgan subyektlar va ishchilar majmui bo'lib, ushbu sektor soliq bazasini kamaytirsa-da, ish o'rinlari yaratishda katta ulushga ega bo'lgan faoliyatni o'z ichiga oladi [6].

Perulik iqtisodchi Hernando de Soto esa norasmiy sektorning kelib chiqishini chuqur tahlil qilgan va uning fikricha yangi korxona yoki yakka tartibdagi faoliyatni rasmiy ro'yxatga olishdagi murakkab va uzoq jarayonlar, yuqori soliq yuki, ya'ni rasmiy faoliyat yuritishning narxini oshishi hamda kichik biznesning rasmiy tizimga kirishida huquqiy va moliyaviy infratuzilmaning zaif ishlashini keltirib o'tgan. Ushbu sabablar bois u “norasmiy sektor – kambag'allikning ixtiyoriy emas, majburiy tanlovidir” deya ta'kidlagan [5].

Piore va Doeringer tomonidan ishlab chiqilgan , Dual mehnat bozori nazariyasiga ko'ra esa, mehnat bozori rasmiy va norasmiy segmentlarga ajralgan [7]. Rasmiy segment barqaror ish joylari, huquqiy asoslangan mehnat shartnomalari, ijtimoiy kafolatlar va mehnatga oid qonunchilik bilan ta'minlangan bo'lsa, norasmiy segmentda ish o'rinlari beqaror, vaqtinchalik va ko'p hollarda huquqiy asosdan mahrum bo'ladi. Bu holatda soliq va moliyaviy siyosat rasmiy va norasmiy sektor o'rtasidagi tafovutni kamaytiruvchi, mehnat

munosabatlarini rasmiylashtirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Fransiyalik iqtisodchilar Nancy Benjamin va Ahmadou Aly Mbaye Afrika mamlakatlarida norasmiy sektorga oid mavjud umumiy yondashuvlarni yangicha burchak ostida ko'rib chiqadi va ayniqsa, fiskal mexanizmlarning ushbu sektor hajmini shakllantirishdagi rolini alohida ta'kidlaydi[4]. Tadqiqotchilarning fikricha, byurokratik va soliq yukining yuqoriligi ko'plab kichik firmalarni rasmiy iqtisoddan chetda faoliyat yuritishga majbur qiladi. Ayniqsa, qat'iy va samarasiz soliq tartibga solinishi kichik biznes uchun «ruxsat etib bo'lmaydigan xarajat»ga aylanadi. Proportsional stavkalar esa, kichik biznes uchun soddalashtirilgan ro'yxatdan o'tish, imtiyozli deklaratsiyalar kabi vositalar rasmiy sektorni kengaytiradi.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida Toshmatov (2019) O'zbekiston sharoitida raqamli texnologiyalarning mehnat bozorida tutgan o'rni va norasmiy bandlikni kamaytirishdagi potentsialini o'rganib chiqdi. U e-commerce va raqamli platformalarning yangi imkoniyatlar yaratishini ta'kidladi [9].

Ismoilov (2022) moliya-kredit tizimining norasmiy bandlikka ta'sirini tahlil qilib, mikrokreditlash va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlarining samaradorligini baholadi. Uning xulosalariga ko'ra, moliyaviy xizmatlarning mavjudligi norasmiy sektordan rasmiy sektorga o'tishni osonlashtiradi [7].

Qodirov (2023) yoshlar bandligi va norasmiy sektor o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qildi. U ta'lim tizimining mehnat bozori talablariga mosligi va kasbiy tayyorgarlik dasturlarining muhimligini ta'kidladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mavjud norasmiy bandlik darajasi va uni qisqartirishda moliya soliq mexanizmlaridan samarali foydalanish bo'yicha mavjud bo'lgan mahalliy va xorijiy olimlarning iqtisodiy nazariyalari va qarashlari o'rganildi sohaga doir statistik ma'lumotlar, qonuniy va me'yoriy huquqiy hujjatlar ko'rib chiqilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Norasmiy mehnat sektori ishchilari odatda ko'plab ijtimoiy muammolarga duch kelishadi. Xalqaro mehnat tashkilotining (ILO) 2024 yildagi hisobotiga ko'ra dunyo bo'yicha 2 milliarddan ortiq inson norasmiy mehnat munosabatlarida faoliyat yuritmoqda. Ya'ni bu dunyo ish bilan band aholining qariyb 60% dan ortig'i demakdir.

O'zbekiston ham norasmiy bandlik darajasi bugungi kunda dolzarb iqtisodiy masalaga aylangan. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda iqtisodiy faol aholi 14,98 millionni tashkil qilgan va ulardan 13,7 million kishi ish bilan band bo'lgan. Ammo, ish bilan band aholidan atigi 6,5 million kishi rasmiy sektorda ishlagan. Bundan bilishimiz mumkinki, ish bilan band aholining 53% norasmiy sektorda faoliyat yuritgan.

Norasmiy bandlik sohalar bo'yicha taqsimlanganda eng yuqori ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligi (34%), savdo (14%), qurilish (14%) va sanoat (11%) sohalarida kuzatiladi. Bu ko'rsatkichlar yuqorida keltirilgan Hernando de Soto tomonidan ta'kidlangan nazariy asoslarga mos keladi, ya'ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlar uchun rasmiy ro'yxatdan o'tish jarayonlarining murakkabligi va yuqori xarajatlar norasmiy faoliyatni rag'batlantirmoqda[5].

MHTIning 2024-yil 9 oylik natijalari tahliliga ko'ra, aholining real daromadlari 7,7 foizga o'sgan va aholi jon boshiga umumiy daromadlar 15,5 foizga o'sib, 17,4 mln so'mni tashkil etgan. Ammo, bu o'sish norasmiy iqtisodiyotni hisobga olib qayta tahlil qilinganda yuzaga kelgan. Bu esa norasmiy faoliyatning o'zni keyingi yillarda ham sezilarli ekanligini bildiradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, norasmiy bandlik darajasi birinchi navbatga byudjetga soliqlar tushumlarining kamayishida yaqqol namoyon bo'ladi. 2022-yilda 9 milliondan oshiq aholi norasmiy sektorda band bo'lgani hisobiga davlat byudjetiga soliq ko'rinishida 32,9 trillion so'm mablag' tushmagan. O'zbekistonda mehnatga oid joriy soliq yuki 24% ni tashkil qiladi (12% JSHODS, 12% Ijtimoiy soliq) [1]. Ammo ish beruvchilarning xodimlar uchun qiladigan moliyaviy xarajatlari soliqlar bilangina cheklanib qolmaydi. Ish beruvchi rasmiy xodimlar uchun majburiy sug'urta badallarini, agarda chet ellik fuqarolarni yollagan bo'lsa uni ro'yxatdan o'tkazish va litsenziya olish xarajatlari, xodimlarning kasallik varaqasi asosida davolanishi uchun qilingan xarajatlar, mehnat ta'tili kabi majburiy xarajatlar ham korxonalarini norasmiy mehnat munosabatlarini amalga oshirishga undaydi.

Yuqorida keltirilgan bir qancha muammolarni hal qilish maqsadida O'zbekistonda ham bir qancha moliyaviy mexanizmlar ustida ishlar olib borilmoqda. Xususan, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlash maqsadida Prezidentimizning 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar" to'g'risidagi PQ-104 qaroriga binoan xizmat ko'rsatish sohasiga bir qancha soliq imtiyozlarini joriy qilindi[3]. Unga ko'ra

“...2022 yil 1 apreldan 2025 yil 1 yanvarga qadar chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yo‘lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta‘mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish, kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta‘mirlash, aro va veterinariya xizmatlarini ko‘rsatuvchi hamda ko‘ngilochar maskanlarda xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash” hamda “...mehmonxona (joylashtirish vositalari) va maydoni 5 ming kvadrat metrdan yuqori bo‘lgan savdo komplekslariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i va mol-mulk solig‘i stavkalarini kamaytirish” belgilandi

Bundan tashqari, moliyaviy mexanizm sifatida imtiyozli mikrokreditlarning ham norasmiy joriy qilinishi ham norasmiy sektordan rasmiy sektorga o‘tish jarayonini osonlashtiradi. Sababi, ushbu kreditlar asosan aholining iste‘mol maqsadlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu orqali oilaviy tadbirkorlik yoki kichik bizneslarni yo‘lga qo‘yishda foydalanish orqali ish bilan bandlik darajasini oshirishga erishilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda norasmiy bandlik muammosi ko‘p qirrali bo‘lib, uning yechimi kompleks yondashuvni talab qiladi. Asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

1. Soliq tizimining samarasizligi: Yuqori soliq yuki rasmiy sektorga o‘tishni to‘siq qo‘ymoqda
2. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning etishmasligi: Mikrokreditlar produktiv investitsiyalarga yo‘naltirilmagan
3. Byurokratik to‘siqlar: Rasmiy ro‘yxatdan o‘tish jarayonining murakkabligi
4. Ta‘lim va malaka oshirish tizimining zaif ishlashi: Mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlanmayapti

Bu muammolarning hal qilinishi davlat tomonidan moliya-soliq mexanizmlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni va yangi, samaraliroq vositalarni joriy etishni talab qiladi. Shu bilan birga, moliya-soliq mexanizmlari norasmiy bandlikni kamaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynashni hisobga olgan holda, O‘zbekiston sharoitida quyidagi yondashuvni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

➤ Soliq yukining yuqoriligi norasmiy bandlikning asosiy sababidir. Soliq stavkalarini bosqichma-bosqich kamaytirish zarur.

➤ Byurokratik murakkabliklar kichik biznesning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Jarayonlarni soddalashtirish muhim.

➤ Raqamli texnologiyalar soliq tizimining samaradorligini sezilarli oshirishi mumkin.

➤ Ijtimoiy himoya tizimi zamonaviy mehnat munosabatlari talablariga javob bermaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 30.12.2019.
<https://lex.uz/docs/-4674902>

2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 28.10.2022.
<https://lex.uz/uz/docs/-6257288>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi «Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-347-sonli qarori.

4. Benjamin, Nancy, and Ahmadou Aly Mbaye. «The Informal Sector in Francophone Africa: Firm Size, Productivity, and Institutions» World Bank Publications, 2012.

5. De Soto, Hernando. «The Other Path: The Invisible Revolution in the Third World» Harper & Row, 1989.

6. Hart, Keith. «Informal Income Opportunities and Urban Employment in Ghana» Journal of Modern African Studies, 1973.

7. Ismoilov, A.K. (2022). «Moliya-kredit tizimining norasmiy bandlikka ta'siri: mikrokreditlash va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlarining samaradorligi» Moliya va bank ishi jurnali.

8. Piore, Michael J., and Peter B. Doeringer. «Internal Labor Markets and Manpower Analysis» Heath Lexington Books, 1971.

9. Toshmatov, B.R. (2019). «Raqamli texnologiyalarning mehnat bozorida tutgan o'rni va norasmiy bandlikni kamaytirishdagi potentsiali» O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali.

10. Sotvoldiyev, A. I., & Xidirov, N. G. (2022). Dinamik modellarni iqtisodiyotda qo'llanilishi. Science and Education, 3(3), 1128-1137

11. Khidirov, N. G. (2021). Mechanisms and methods of financing enterprise investment projects. Journal of Economics, Finance and Management Studies, 4(05), 475-482.

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

